

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2024 Vol. 4

tsuull.uz
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2024 Vol. 4

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosari: Nodir Jo'raqo'ziyev

Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ūlvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Ūşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nodir Jurakuziev

Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odiakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Dilafruz Satimova

O'zbek adabiyotida substandart leksik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi va ularning ingliz tiliga tarjimasida.....6

Umida Mahmudova

Raqamli texnologiyalar diskursi tarjimasida sun'iy intellekt ChatGPT va Google Translate tarjimon dasturlarining farqi.....23

Zilola Tillabayeva

Samarqand viloyati qarluq shevalariga doir leksemalarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari.....37

Adabiyotshunoslik

Orzigul Hamroyeva

Abdurahmon Sa'diyning "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" darsligining tarkibiy tuzilishi.....49

Alimuhtor Muhtorov

Nizomiy Ganjaviy siymosining milliy o'zlikni anglashdagi roli.....63

Vəzufə Xudiyeva

Azərbaycanda mövcud bibliografik ehtiyatlar sisteminin inkişafı.....76

Kishin Xajiboyev

"Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romani syujetida inson va tabiat konsepsiyasi ifodasi.....87

Tarix. Manbashunoslik

Kemal Yavuz Ataman

Ikki yetakchi sahoba: Qusam bin Abbos va Abu Ayyub al-Ansoriy va ikki muhim shahar: Samarqand va Istanbul.....101

Sotsiologiya. Psixologiya

Komil Kalanov

Diniy ramziy belgilar tizimining tarixiy va ijtimoiy-madaniy tavsifi.....120

CONTENT

Linguistics

Dilafruz Satimova

Linguoculturological Study of Substandard Lexical units in
Uzbek Literature and their Translation into English.....6

Umida Mahmudova

The Difference Between Artificial Intelligence ChatGPT and Google
Translate in the Discourse of Digital Technologies Translation.....23

Zilola Tillabaeva

Types of Lexemes in the Karluk Dialects of Samarkand Region
According to their form and meaning.....37

Literature

Orzigul Hamroeva

The Structure of Abdurahmon Sa'di's Textbook "Practical and
Theoretical Literature Lessons"49

Alimukhtor Mukhtarov

The Role of Nizami Ganjavi's Image in Understanding National
Identity.....63

Vazufa Khudieva

Development of the Existing Bibliographic Resources System in
Azerbaijan.....76

Kishin Khajiboev

The Expression of the Concept of man and nature in the plot of the
novel "The shore that lost its river"87

History. Source studies

Kemal Yavuz Ataman

Two Pioneer Companions, Two Important Cities in the Conquest
Qutham ibn Abbas & Abu Ayyub al-Ansari, Samarkand & Istanbul.....101

Sociology. Psychology

Komil Kalanov

A Historical and Socio-Cultural Description of the System of
Religious Symbols.....120

Samarqand viloyati qarluq shevalariga doir leksemalarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari

Zilola Tillabayeva¹

Abstrakt

Har bir tilning lug'at tarkibidagi shakldosh so'zlar, uning sheva va lahjalari tadrijiy hodisa bo'lib, ma'lum bir davrda tilning o'ziga xos ichki qonuniyatlari va xususiyatiga qarab vujudga kelgan.

Mazkur maqolada Samarqand viloyati qarluq shevalariga doir leksemalar tahlilga tortilib, ulardagi omonimlik, sinonimlik, antonimlik, paronimlik hodisalariga alohida to'xtalib o'tilgan. Mazkur mavzu yuzasidan amalga oshirilgan ishlar tahlili ham berilgan. Shuningdek, dialektal leksemalar yondosh hudud shevalari bilan taqqoslangan.

Kalit so'zlar: *Samarqand viloyati qarluq shevalari, leksemalar, omonimlik, sinonimlik, antonimlik, paronimlik, qiyosiy-tavsifiy metod.*

Kirish

Jahon tilshunosligida turli til oilalariga mansub tillarning rivojlanish qonuniyatlari, o'zaro ta'siri, bu jarayonni yuzaga keltiruvchi omillar va muloqot vositasi sifatida tilning grammatik qurilishi, lug'aviy tarkibi va ularning o'zgarishlari haqidagi tadqiqotlar tarixi juda qadimiy davrlarga borib taqaladi. Tillar orasidagi o'zaro aloqalar, ta'sirlar va o'zgarishlar nafaqat tilshunoslikda, balki madaniyatshunoslik, tarixshunoslik va antropologiya kabi sohalarda ham alohida o'rganilgan. Bugungi kunda jahonning turli mintaqalarida yuz berayotgan globallashuv jarayonlari, shuningdek, yangi kommunikatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi tufayli tillar o'rtasidagi aloqalar, so'zlashuvdagi o'zgarishlar va tillar lug'aviy tarkibidagi yangilanishlar tezlashgan. Bularning barchasi, o'z navbatida, tilshunoslikka yangi, murakkab va qiziqarli masalalarni yuzaga

¹*Tillabayeva Zilola Raxmatillayevna* – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti tadqiqotchisi.

E-pochta: tillabayeva87@bk.ru

ORCID ID: 0009-0005-1562-307X

Iqtibos uchun: Tillabayeva, Z. R. 2024. "Samarqand viloyati qarluq shevalariga doir leksemalarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari". *O'zbeiston: til va madaniyat* 4: 37 – 48.

keltirmoqda.

Shu bois, jahon tilshunosligida tillar tizimida yuzaga kelayotgan yangilanishlarni zamonaviy tadqiqot usullari yordamida o'rganish, bu boradagi ilmiy kuzatishlar va tajribalarni kengaytirish hamda adabiy til manbalarini zamonaviy andozalar asosida tahlil qilish dolzarb vazifalar qatoriga kiradi. Yangi tadqiqot usullari, xususan, lingvistik tahlilning zamonaviy metodologiyasi va texnologiyalarining o'zgarishi, tilshunoslarga tillardagi o'zgarishlarni tez va aniq aniqlash imkonini yaratmoqda. Shu bilan birga, adabiy tilning funksional imkoniyatlarini kengaytirish, uning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish va bilingvizm hodisasi ham muhim tadqiqot yo'nalishlarini tashkil etmoqda.

Jahon lingvistikasi va o'zbek tilshunosligida sheva va dialektlarning o'rni ham katta. Ularning leksik xususiyatlarini o'rganish, ularning adabiy tilga bo'lgan ta'sirini tahlil qilish nafaqat til rivojiga, balki milliy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini saqlash va rivojlantirishga ham yordam beradi. Shevalar va ularning xususiyatlarini o'rganish, shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda diqqatga sazovor, chunki shevalar tilning asosiy rivojlanish manbayi sifatida xizmat qiladi. Dialektologiya va shevashunoslik tadqiqotlari nafaqat til o'zgarishlarini tushunishga, balki milliy madaniyat va tarixni yanada chuqurroq anglashga ham yordam beradi.

Mustaqillik yillarida o'zbek tilshunosligi sohasida sezilarli yutuqlar kuzatildi, ayniqsa, o'zbek shevalari va ularning grammatik, fonetik, leksik tarkibini o'rganishda katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Shevalar o'zbek adabiy tilining rivojlanishiga, uning boy til xususiyatlarini saqlashga va yangi shevalarning shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, shevalarning adabiy tilga ta'siri, shahar va qishloq tipidagi lahjalarni tadqiq etish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashning zamonaviy metodologiyasini ishlab chiqish dialektologiya sohasidagi ilmiy yutuqlarni yanada kengaytiradi.

O'zbek tilshunosligida xalq shevalarining leksik xususiyatlarini o'rganish va ularni tizimli ravishda tadqiq etish nafaqat tilshunoslik uchun, balki umumiy madaniyatshunoslik va tarixshunoslik sohalari uchun ham juda muhim va dolzarb masala hisoblanadi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida milliy qadriyatlarini tiklash, asrab-avaylash va keng targ'ib qilish davr talablariga mos ravishda amalga oshirilmoqda. Bu jarayonning ajralmas qismi sifatida o'zbek shevalarining o'rni ham alohida ahamiyatga ega. Shevalar nafaqat

tilni, balki xalqning tarixiy va madaniy merosini, uning o'ziga xos hayot tarzini, urf-odatlarini saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish imkonini yaratadi. Shu sababli o'zbek tilshunosligida shevalarning lingvistik, madaniy va tarixiy ahamiyatini o'rganish, ularni chuqur ilmiy tahlil qilish va zamonaviy ilmiy metodlar yordamida tadqiq etish dolzarb vazifadir. Bu esa o'zbek tilining kelajakdagi rivojlantirishiga, uning dunyo tilshunosligidagi o'rnini mustahkamlashga va milliy madaniyatni saqlashga xizmat qiladi.

Har qanday xalq hayotida paydo bo'ladigan voqea-hodisalar dastlab tilning leksikasida aks etadi. Shuning uchun ham leksika til strukturasi elementlari ichida eng harakatchani [Виноградов 1950, 23] va xalq maishiy saviyasining oynasi hisoblanadi [Абаев 1969, 72]. Darhaqiqat, o'zbek xalqi g'oyat murakkab tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Turli-tuman millatlar bilan yaqin munosabatlar o'rnatib, leksik qatlamning boyishiga sabab bo'ldi. Jamiyat hayotida sodir bo'ladigan o'zgarishlar til sistemasining lug'aviy sathida namoyon bo'ladi. Bu o'zgarishlar adabiy tilni oziqlantirib turuvchi shevalar leksikasida ham aks etishi tabiiy, albatta. Leksika ma'lum qonun-qoidaga bo'ysunuvchi izchil va murakkab tizimdan iborat. Til leksikasi to'xtovsiz o'zgarib turadi. Bu narsa lug'at tarkibida yangi so'zlarning paydo bo'lishi, mavjud so'zlardan ayrimlarining eskirib, iste'moldan chiqishi, leksik ma'nosini o'zgartirib, yangi ma'no kasb etishi kabi jarayonlarda ko'rinadi. Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy tuzumning o'zgarishi bilan uzviy bog'langan holda leksika boyib boradi. Shunday qilib, mahalliy dialekt va xalq shevalari milliy tilning quyi formalari bo'lib hisoblanishi bilan bir qatorda, ayni vaqtda, ular adabiy tilning ichki rivojlanish imkoniyatlarini tashkil qiladi, adabiy tilning yoki milliy adabiy tilning taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ichki manba, tayanch hisoblanadi. Shuning uchun ham mahalliy dialekt va xalq shevalariga milliy adabiy tilning ichki manbayi, ichki taraqqiyot resursi va tayanchi sifatida avaylab munosabatda bo'lish talab qilinadi [Дониёров 1988, 12].

Shevalarning lug'at tarkibida ko'pchilik so'zlar turli shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarining mavjudligi bilan ajralib turadi, ularsiz nutqimiz ifodasiz bo'lib qoladi. Shevaning yanada ta'sirchan, rang-barang, ifodali bo'lishi uchun leksik sinonimlar, qarama-qarshilik uchun antonimlar, turli xil ma'nolarni ifodalovchi omonimlar va ko'p ma'noli so'zlar faol qo'llaniladi.

Muammoning tadqiq tarixi

Xususan, O'rta Qashqadaryo jelovchi o'zbek shevalari

bo'yicha nomzodlik ishini yoqlagan N.Shoimova ham mazkur hudud shevasiga doir so'zlarning omonimiya, sinonimiya hodisalarini adabiy til bilan qiyoslab o'rgangan [Shoimova 1999].

R. Yo'ldoshev tomonidan Turkmanistonning Toshhovuz viloyatidagi o'zbek shevalari tadqiq qilingan bo'lib, dissertatsiya-ning ikkinchi bobida mazkur hudud aholisidan to'plangan 3000ga yaqin lug'aviy birliklar ko'p ma'noli so'zlar, omonimlar, sinonimlar, antonimlar sifatida leksik-semantik xususiyatlariga ko'ra guruhlarga bo'linib, adabiy til bilan qiyoslangan [Yo'ldoshev 2002].

Navoiy viloyati o'zbek xalq shevalarini tadqiq qilish bo'yicha uzoq yillik izlanishlar olib borgan N.Murodovanning ham doktorlik dissertatsiyasining ikkinchi bobida jonli xalq tilidan to'plangan 15.000dan ortiq so'zlar sinonim, antonim, omonim kabi leksik-semantik guruhlarga bo'linib, tahlilga tortilgan [Murodova 2006]. Shuningdek, A.Allaberdiyev tomonidan Buxoro viloyatining Qorako'l, Olot, Jondor, Romitan, Peshku, Shofirkon, Kogon tumanlarida tarqalgan o'g'uz shevalari leksik birliklarining shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari (sinonimlar, antonimlar, omonimlar)-ning o'zbek adabiy tilidagi ayni shunday til hodisalaridan farqli tomonlari aniqlangan va tahlil qilingan [Allaberdiyev, 2018].

Biz ham mazkur maqolamiz mazmunidan kelib chiqib, Samarqand viloyati qarluq shevalariga xos so'zlarni shu jihatdan tadqiq qilishga harakat qildik.

Rus tilshunoslari omonimlar nazariyasi, ularning tildagi polisemantik birliklar bilan aloqasi haqida o'z fikrlarini ancha oldin bildirib o'tishgan. Jumladan, V.V.Vinogradov mazkur masala yuzasidan shunday yozadi: "Dialektlar nafaqat yo'qolgan yoki degradatsiyaga uchragan turli grammatik shakllarning qoldiqlarini qamrab oladi, balki gap bo'laklarining jonli shakllari o'rtasidagi yangi paydo bo'lgan mahsulot kurashini ham saqlaydi" [Виноградов 1947, 241]. Rossiyalik olimlardan yana biri A.A.Potebnya esa quyidagicha mulohazalarini iflagari suradi: "So'zdagi zarracha leksik o'zgarish boshqa so'zlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi" [Потебня 1958, 15]. Afsuski, mazkur nuqtayi nazar qolgan tilshunoslar tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi. Zero, har bir lug'aviy birlik milliy tilning semantik, fonetik va grammatik qonun-qoidalari asosida yuzaga keladi. Yuqoridagi olimlarning fikrlariga qarab ish tutsak, polisemiya, uning xususiyatlari hamda omonimiya o'rtasida chalkashish yuzaga kelishi mumkin. Hatto, ular orasidagi tafovutni belgilash qiyin kechadi.

Haqiqatdan ham, tildagi omonimlik va polisemantik so'zlar

muammosi hali o'zining to'liq yakuniy yechimini topganicha yo'q. Tilshunos olim D.N.Shmelev omonimlarga doir quyidagi qimmatli qarashlarni bildirib o'tadiki, bizningcha, bu maqbul fikr hisoblanadi: "Omonimlar tovush tarkibiga ko'ra bir-biriga mos keladigan so'zlar, ya'ni ular shakl jihatidan bir xil bo'lgan so'zlar, lekin ular o'rtasida semantik umumiylik bo'lmagan ma'nolarni ifodalaydi. Keyinchalik u omonimlarni "alohida, mustaqil so'zlar va egizaklar" deb ta'kidlaydi [Шмелев 1977, 78].

Shakldosh so'zlarning strukturasi va talqini

Omonimlar shakli va talaffuzi bir xil, ammo ma'nolari butunlay boshqacha bo'lgan so'zlardir. Shevalardagi shakldoshlik, tabiiyki, adabiy tildagiga qaraganda ancha ozchilikni tashkil qiladi. Shu o'rinda omonimlarni ko'p ma'noli so'zlardan farqlash kerak. Chunki polisemantik so'zlarda bosh ma'nosi bir xil bo'lgan birdan ortiq narsa va hodisalarga berilgan hosila ma'nolarni anglatuvchi so'zlar tushuniladi. Biroq nutqda omonim va polisemantik so'zlarni bir-biridan farqlash qiyinchilik tug'diradi. Shunday bo'lsa-da, o'ziga xos qator farqli jihatlari bor. Ko'p ma'noli so'zlar o'rtasida o'zaro semantik aloqadorlik kuzatiladi: *ajdär*: 1) afsonaviy katta ilon; 2) badfe'l, badjahl: *E, ošä xätunmi, šunnāy äždär-ku!*

Tinčimāq. 1) bosilmoq: *Tojdä yälä-yävur tinčidi*. 2) biror ish, niyat va boshqa shu kabi yumushlarni amalga oshirib xotirjam bo'lmoq: *Qizimni uzāt qilib tinčidim, bāžānām*. 3) behuda, bo'lar-bo'lmas gap-so'z, ovozlardan qutulmoq, uni eshitmaslik: *Bäčälārim ketib, bīrpäsīlgä qulāyi:m tinčidi*.

Ko'pgina tilshunos olimlarning ta'kidlashicha, shakldosh so'zlar polisemantik so'zlar o'rtasida bog'liqlik yo'qolganda vujudga keladi.

Leksik omonimlar shevalarda bir so'zning turli xil ma'nolarni anglatishi asosida yuzaga keladi. Masalan, *qars* so'zi Samarqand viloyati qarluq shevalarida ikki ma'noda qo'llaniladi. Biri taqlidiy so'z hisoblanib, narsalarning bir-biriga qattiq urilishidan, sinishidan va shu kabi holatlardan hosil bo'ladigan tovushlarni anglatadi: *Hävliädä nimädur qärs etti*. Ikkinchi ma'nosi keksa xotinlar o'raydigan yupqa oq matodan qilingan ro'mol. Bu so'z, shuningdek, Jizzax shevalarida ham xuddi shu mazmunda ishlatiladi: *Fätjähānigä qärsiñni oräb či:q*.

Läj - Farg'ona shevalarida itning kichik zotini anglatsa (*Bu kučuk zāti läj*), Samarqand shevalarida bola tiliga oid so'z bo'lib, raqs ma'nosida takroriy so'z sifatida qo'llanadi: *Lälāj läj-läj qi:lipti*.

Liñ - Qashqadaryo shevalarida muvozanat saqlamoq

ma'nosida kelsa, Samarqand viloyati qarluq shevalarida odam oyog'ining tizza bilan tos o'rtasidagi qismini anglatadi: *Birām bu qi:z bāčāni liḡi besonāqāj ekān.*

Loli – Farg'onada janjalkash, urushqoq kishilarga nisbatan qo'llanadi. SSHQLda dunyoning juda ko'p qismida tarqoq holda yashaydigan ko'chmanchi xalqqa nisbatan qo'llaniladigan jo'gi so'zining sinonimi tarzida ishlatiladi: *Hämmä žājgä lolilärni korämän.*

Demak, omonimiya juda murakkab va o'zgaruvchan hodisa bo'lganligi sababli tilda darhol paydo bo'lmaydi va bosqichma-bosqich amalga oshib yuzaga keladigan jarayon sanaladi. Matn tarkibidagina so'zlarning turli ma'nolari anglashiladi. Ma'lum bir sheva vakillari nutqida omonimlardan ma'lum bir uslubiy maqsadlarda foydalanadilar. Shakldosh so'zlarning tilda ko'p uchrashi umumo'zbek adabiy tili hamda barcha, jumladan, tadqiqot obyektiga xos shevalarning leksik-semantik qatlamlarini chuqurroq tadqiq qilish, maxsus izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Ma'nodosh so'zlar mazmun va talqini

Ham jahon, ham o'zbek tilshunosligida sinonimiya hodisiga bag'ishlangan talaygina ishlar mavjud. O'zbek tilshunosligida sinonimiya leksik, morfologik, sintaktik birliklar misolida atroflicha tadqiq qilingan. Shevalardagi talaffuzi turlicha, ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlar-sinonimlar adabiy tildagilardan o'zlarining semantik xususiyatlari, shakllanishlari jihatdan farq qilishlarini kuzatish mumkin: hālisā (Samarqand) ~ hādisā (Qashqadaryo) ~ hālim (Toshkent) – hālim; belinčāk (Samarqand) ~ hāḡi:lčāk (Gurlan, Mang'it, Yangibozor) ~ hārki:nčāk (Bog'ot) – belanchak; zuvām (Buxoro) ~ tumāq (Samarqand) – tumov va hokazolar.

“Ma'nolari absolyut teng keladigan ikki va undan ortiq so'zni topish qiyin (ta'kid bizniki. Z.T.) bo'lgani kabi har qanday sharoitda o'zaro o'rin almasha oladigan ikki va undan ortiq so'zni ham topish oson emas: yuz, bet kabi. Lekin o'rin almashish darajasi turlicha – ba'zi bir uyaga mansub sinonimlar kontekstda ko'p o'rin almashsa, ba'zi uyaga mansub sinonimlar kontekstda kam o'rin almashadi. Lekin mutlaq almashmaydigan sinonimlar yo'q” [Кўчқортоев 1984, 64]. Demak, o'zbek adabiy tilida, turli-tuman shevalarda, xalq og'zaki ijodi namunalarida ma'nodosh so'zlar ma'lum bir matn doirasida turli mazmunni ifodalashga xizmat qiladi.

Qolaversa, shevalardagi sinonimik qatorni tashkil etuvchi

so'zlar adabiy tilga nisbatan qo'llanilishi torroq hisoblanadiki, bunday birliklar faqat o'sha sheva vakillari uchun xos holat hisoblanadi: hulvāj (Buxoro) ~ pudinā (Samarqand) - yalpiz; ābdi:š (Qarshi, Jizzax) ~ ābžoš (Samarqand) - qaynoq suv; iliştirik (Xorazm)~ dolānā (Samarqand) - do'lana kabilar.

1. O'zbek adabiy tilidagi, xususan, shevalardagi ma'nodosh so'zlarning ko'pchiligi asl ma'nosini saqlagan holda sinonimligicha qolaveradi. Bu holatni Samarqand viloyati qarluq shevalari misolida ko'rib, tahlil qilib chiqamiz: ad.-orf. nordon // *turuš*; belbog'// *jākābānd*, *mijānbānd*, *čārsi* (mazkur sinonimik qatordagi so'zlar aholi nutqida erkin almashinib qo'llaniladi), ad.orf.- to'g'nog'ich// *būlafka*, *sarsozān*, *ijnatūgma*-; ad.orf.-yostiqlik// *jastūq*, *bālišť*; ad.orf.-tumov// *tumoq*; ad.orf.-biroz// *piči*, *pičā*, *āndāk*; ad.orf.-chillaki// *surxāk*, *xālili*; ad.orf.-zag'izg'on// *ālāšāqšāq*, *hākkā*; ad.orf.-duxoba// *čijbāxmāl*, *bāxmāl*; ad.orf.-patnis// *lā:li*, *lājli*, *pātnās*, *pātnis* va hokazo.

2. O'zgaruvchan sinonimlar. Bunday so'zlar aslida sinonim bo'lib, boshqa kontekst yoki so'zlashuv nutqiga o'tgach, boshqa so'z bilan sinonimlikka kirishadi: ad.orf.-*skelet* so'zi odam va hayvonlar organizmida tayanch va himoya funksiyasini bajaradigan qattiq to'qimalar majmuini anglatadi. Samarqand viloyati qarluq shevalarida qiltiriq, ozg'in kabi so'zlar bilan sinonimlik hosil qiladi: *Bu skelet āvqāt jemaj māni žudājām zix qilli*.

Zānčā nutqda jihatdan jinsiy jihatdan erkak toifasiga zid, biror erkak nikohidagi ayol ma'nolarini bildiradi. Biroq kattalar gapiga bo'lar-bo'lmas qo'shiladigan yosh qizaloqlarga nisbatan qo'llanilib, mahmadana so'zi bilan sinonimlik hosil qiladi: *Bu zānčā hāmmā gāpgā qošilādi*.

Bulbulčā so'zi ad.orf. chumchuqsimonlar turkumining qorayaloqlar oilasiga mansub sayroqi qush ma'nosini bildiradi. Mazkur shevada esa kichik yoshdagi o'g'il bolalarni suyib erkalaganda qo'llanadi: *Hā, bulbulčām, nimā bolli sāngā?*

3. Kontekstli yoki shartli sinonimlar tub mohiyati bilan sinonim bo'lmasa-da, boshqa ko'chma ma'noda ishlatilishi natijasida sinonimlik hosil qiladi: *sochini yulmoq* birikmasi ko'chma ma'noda urishmoq yoki g'am chekmoq so'zlari bilan sinonimlik hosil qilishi mumkin: *Xātunlār bir-birāvi blān sāčini julišti. Bālāsini kujidā sāčini juldi*.

Zid ma'noli so'zlar munosabatlari

Antonimlar mazmun jihatdan o'zaro qarama-qarshi ma'noli so'zlardir. Ular o'zbek adabiy tilida bo'lgani kabi shevalarda ham

tushunchani yanada jozibador va ta'sirchan qilish maqsadida qo'llaniladi. Zidlik ot, sifat, ravish kabi so'z turkumlarida ko'proq, fe'l so'z turkumida ozchilikni tashkil qiladi. Olmosh, yordamchi so'zlar va oraliqdagi so'z turkumlarida uchramaydi.

Antonimiya hodisasi o'zbek tilshunosligida ilk marotaba monografik yo'sinda R.Shukurov, B.Isabekovlarning nomzodlik ishlarida yoritilgan. Keyinchalik G.Keldiyorova, D.Abdullayeva kabi olimlar ishlarida ham antonimlar va antiteza hodisalari, antonimlar hamda kontekstual antonimlarning munosabatlari atroflicha yoritilib, ilmiy asoslangan.

Mazkur ishlardan kelib chiqqan holda bunday so'zlarni ikki guruhga bo'lish mumkin: 1) bir o'zakli antonimlar, ya'ni affiksatsiya usulida yasalgan yasama antonimlarni o'rganayotgan shevamiz misolida ko'rib chiqamiz:

- le nā- *orenle- nāoren*
- be- -li *āndešāli- beāndešā*
- be- bā- *bemāslijāt- bāmāslijāt*
- be- -kār *begunā- gunāhkār*
- be- -nāk *behüsün- hüsünnāk*
- be- bār- *bevāxt- bārvāxt*

2) turli o'zakli antonimlar, ya'ni tub antonimlar bo'lib, bularning semantik doirasi yasama antonimik juftlikka nisbatan kengroq. Bunga turli so'z turkumlari doirasida qaraymiz:

Sifat antonimlar: *gārāñ – bālā, xorā – chimxor, āsān – qijind, pājgāk-tor, ixčāmākāk – besonāqāj, tāzā/ āzādā – i:слиqi, kālān-u gārān – xurdi*; ad.orf. *garang – balo/ ustomon, xo'ra – chimxo'r, oson-qiyin, poygak – to'r, ixcham – beso'naqay, top-toza – isqirt/kir, katta-kichik.*

Ravish antonimlar: *piči – mol, āstā – tez, dārün – berün, sähär mārđān – kečqürün, beixtijār – jorttābā*; ad.orf. *kam – ko'p, asta – tez, ichkari – tashqari, tong – kechqurun, beixtiyor – jo'rttaga.*

Talaffuzdosh so'zlarning ontologik tabiati

Tilning omonimiya, sinonimiya, antonimiya, polisemiya kabi munosabatdosh leksik-semantik guruhiga kiruvchi paronimiya hodisasi o'zbek tilining, shevashunosligining milliy xususiyati va ontologik tabiatini o'zida namoyon qiluvchi hodisa sifatida ahamiyatli. Xususan, paronimlar ma'lum tovush bilan farqlanuvchi leksemalar qatori hisoblanadi.

O'zbek tilshunosligida polisemiya va unga yondosh hodisalar A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev, M.Mirtojiyev, R.Shukurov, R.Safarova, O.Bozorov, A.Omonturdiyev, Sh.Orifjonova, B.Qilichev, B.T.Suyunov,

J.Djumabayeva, F.Jumayeva, V.Nafasova kabi olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan.

Xususan, paronimlarda hal qiluvchi vazifani tovushlarning o'xshashligi emas, balki farqi birini boshqasidan ajratib turuvchi fonologik-fonetik (va grafik) belgi muhim sanaladi. O'xshash ikki leksemadan noo'xshash fonologik-fonetik dalil qidiriladi: chalg'i-cholg'u juftligida besh tovushning ikkitasi noo'xshash. O'xshash qism miqdoran ko'p, noo'xshash qism tarkibi asosan bir, ba'zan ikki tovushdan iborat, ba'zan distributsiya (tansiq-tanqis, qismoq-siqmoq) va shunga o'xshash lingvistik hodisalar ham farqlanish vazifasini bajaradi [Haфacova 2019, 12].

Biz ham mazkur mezonlardan kelib chiqqan holda Samarqand viloyati qarluq shevalari yuzasidan to'plangan materialimiz tarkibidagi ayrim paronimik juftliklarni ko'rib chiqamiz.

Doqqi – notekis yoki tekis bo'lmagan sirtga ega; silliq yoki tekis emas. Ma'nosiga ega sifat turkumiga mansub so'z. *Hoqqi*-muomalasi qo'pol, zardali, beandisha bo'lgan kishi.

Olus – ko'zlari ikki chetga siljib qolgan g'ilay ko'z. *Olis*-oraliq masofasi katta, nisbatan narida joylashgan uzoq masofani anglatadi.

Māda – biror bir parrandaning, qushning urg'ochisini anglatadi. *Me'dā* – kishining ovqat hazm qilish a'zolaridan biri.

Bā – avval bo'lgan ish-harakat, narsa-hodisaning takror yuz berishini boshlanishi va davom etishini bildiradigan tag'in, yana so'zlarining shevadagi varianti. Be-ajablanishni, hayronlikni yoki norozilikni ifodalovchi iye, iyya kabi undov so'zlarning dialektal varianti.

Xulosa

Fikrimiz yakunida shuni aytishimiz mumkinki, Samarqand viloyati qarluq shevalarida o'zbek adabiy tilida bo'lgani kabi paronim so'zlar juftligi mavjud. Ishning ko'lamidan kelib chiqqan holda faqat ularning ayrimlarigagina to'xtalib o'tdik, xolos. Hozirgi paytda filologiya fakultetlarida alohida fan sifatida o'qitilayotgan o'zbek adabiy tili, o'zbek tili tarixi, o'zbek shevashunosligi fanlarini o'zaro mushtarak holda tadqiq qilish lozimki, bular mazkur fanlarning boyib, mukammallashib, bir-birini to'ldirib borishiga ta'sir ko'rsatadi. Qolaversa, shevaga oid birliklarni aniqlash, to'plash o'zbek adabiy tilimizning qanday taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tganligini, tilimizning ko'lamini aniqlashda muhim manba bo'lib xizmat qilishi, shubhasiz.

Dialektal birliklarni tilshunoslikning tarixiy-qiyosiy, tavsifiy usullaridan foydalanib tahlil qilish o'zbek dialektologiyasining taraqqiyot bosqichlarini aniqlash, tilimiz imkoniyatlarini yoritish ko'plab yangidan yangi tadqiqotlarning yaratilishida beqiyos o'rin tutadi.

Adabiyotlar

- Виноградов, В. В. 1950. *Развития советского языкознания*. Изд. АПН. Москва.
- Абаев, В. И. 1969. *О развитии литературных языков иранских народов Советского Союза*. Москва.
- Дониёров, Х., Йўлдошев Б. 1988. *Адабий тил ва бадиий стиль*. Тошкент: Фан.
- Шоимова, Н. 1999. *Ўрта Қашқадарё желовчи қипчоқ шевалари лексикаси*. Филология фанлари номзоди дисс. Тошкент.
- Йўлдошев, Р. 2002. *Тошқовуз вилоятидаги ўзбек шеваларининг лексик хусусиятлари*. Филология фанлари номзоди дисс. Тошкент.
- Муродова, Н. 2006. *Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг лингвоареал талқини*. Филология фанлари доктори дисс. Тошкент.
- Аллабердиев, А. 2018. *Бухоро ўғуз шевалари лексикаси*. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. Тошкент.
- Виноградов, В. 1947. *Русский язык*. (Грамматическое учение о слове). Москва.
- Потебня, А. А. 1958. *Из записок по русской грамматике*. Том 1-2. Москва.
- Шмёлев, Д.Н. 1977. *Современный русский язык*. Лексика. Москва.
- Қўчқортоев, И. 1984. "Луғавий синонимик воситалар ва уларнинг асосий турлари". *Ўзбек тили ва адабиёти* 4.
- Ўзбек шевалари лексикаси*. 1991. Тошкент: Фан.
- Нафасова, В. 2019. *Ўзбек тили паронимларининг лисоний таҳлили*. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.
- <https://qomus.info/encyclopedia/cat-1/leksika-uz/>

Types of Lexemes in the Karluk Dialects of the Samarkand region According to their Form and Meaning

Zilola Tillabaeva¹

Abstract

Morphologically close words in the vocabulary of each language, its dialects and adverbs represent a gradual phenomenon that develops over a certain period of time depending on specific internal patterns and characteristics of the language.

This article analyzes lexemes of the karluk dialects of the Samarkand region, paying special attention to the phenomena of homonymy, synonymy, antonymy, paronymy in them. An analysis of the work carried out on this topic is also given. Dialectal lexemes are also compared with dialects of neighboring regions.

Key words: *karluk dialects of the Samarkand region, lexemes, homonymy, synonymy, antonymy, paronymy, comparative-descriptive method.*

References

- Vinogradov, V. V. 1950. *Razvitiya sovetского yazikoznaniya*. Izd. APN. Moskva.
- Abayev, V. I. 1969. *O razvitiy literaturnix yazikov iranskix narodov Sovetskogo Soyuz*. Moskva.
- Doniyorov, X., Yo'ldoshev B. 1988. *Adabiy til va badiiy stil*. Toshkent: Fan.
- Shoimova, N. 1999. *O'rta Qashqadaryo jelovchi qipchoq shevalari leksikasi*. Filologiya fanlari nomzodi diss. Toshkent.
- Yo'ldoshev, R. 2002. *Toshhovuz viloyatidagi o'zbek shevalarining leksik xususiyatlari*. Filologiya fanlari nomzodi diss. Toshkent.
- Murodova, N. 2006. *O'zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvo-areal talqini*. Filologiya fanlari doktori diss. Toshkent.
- Allaberdiyev, A. 2018. *Buxoro o'g'uz shevalari leksikasi*. Filologiya fanlari

¹ Zilola R. Tillabaeva – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, researcher at the Uzbek-Finnish Pedagogical Institute.

E-mail: tillabayeva87@bk.ru

ORCID ID: 0009-0005-1562-307X

For citation: Tillabaeva, Z. R. 2024. "Types of lexemes in the karluk dialects of Samarkand region according to their form and meaning". *Uzbekistan: Language and Culture* 4: 37 – 48.

bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. Toshkent.

Vinogradov, V. 1947. *Russkiy yazik*. (Grammaticheskoye ucheniye o slove). Moskva.

Potebnya, A. A. 1958. *Iz zapisok po russkoy grammatike*. Tom 1-2. Moskva.

Shmyolev, D.N. 1977. *Sovremenniy russkiy yazik*. Leksika. Moskva.

Qo'chqortoyev, I. 1984. "Lug'aviy sinonimik vositalar va ularning asosiy turlari". *O'zbek tili va adabiyoti* 4.

O'zbek shevalari leksikasi. 1991. Toshkent: Fan.

Nafasova, V. 2019. *O'zbek tili paronimlarining lisoniy tahlili*. Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss.

<https://qomus.info/encyclopedia/cat-l/leksika-uz/>